

	<p>45. Sveygert K., Ketts X. Vvedeniye v sravnitelnoye pravovedeniye v forme chastnogo prava. T. 1.2. – Moskva:1998.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari:</b></p> <p><a href="http://www.edu.uz">http://www.edu.uz</a> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb sayti.</p> <p><a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a> – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.</p> <p><a href="http://www.cspi.uz">www.cspi.uz</a> – Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti</p> <p><a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a> - (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)</p> <p><a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a> - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portal</p>
7.	<b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “ ” dagi qarori bilan tasdiqlangan</b>
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma’sul:</b></p> <p><b>B.M. Qandov</b> – CHDPU, “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>G.G’. G’affarova</b> - CHDPU, “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası professori, falsafa fanlari doktori (DSc)</p> <p><b>M.X.Borotov</b> – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti bo‘lim boshlig‘i, yuridik fanlari doktori, professor</p>

W

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**QIYOSIY HUQUQSHUNOSLIK FANINING  
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta‘lim
Ta‘lim sohasi:	110000 – Ta‘lim
Ta‘lim yo‘nalishi:	70112102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (huquq ta‘limi)

**Chirchiq – 2024**

Fan/modul kodi QH 1205	O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
		Qiyosiy huquqshunoslik	60	90
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p>XXI asr boshida jahonning barcha mamlakatlarida qiyosiy huquqiy tadqiqotlar bir muncha rivoj topmoqda. Ular hozirgi zamon huquqiy tizimlari va milliy qonunchiliklari rivojlantirishining qonuniyatlarini aniqlash maqsadiga ega. Mazkur tadqiqotlarning ahamiyati shundaki, ular nafaqat huquqshunoslikning ko'plab an'anaviy masalalarining yechimini topishga kengroq yondoshish imkonini beradi, balki qator yangi muammolarni qo'yadi. Umuman huquqiy tizimlarni qiyosiy o'rganish negizida qiyosiy huquqshunoslik kabi shunday bir ilmiy yo'nalish hamda o'quv fani shakllanib, tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.</p> <p>Qiyosiy huquqshunoslikning muhim o'rni va uni rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi ob'ektiv omillar quyidagilar hisoblanadi: birinchidan, hozirgi zamon huquqiy tizimlarining xilma-xilligi; ikkinchidan, huquqiy o'zaro bog'liqlik va davlatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa aloqalarning rivojlanishi; uchinchidan, jahon huquqiy haritasida yangi mustaqil davlatlarning milliy huquqiy tizimlarini paydo bo'lishi; to'rtinchidan, qiyoslashning ko'plab xalqaro tashkilotlar faoliyatini qiyoslash asosida tashkil etilganligi.</p> <p>Qiyosiy huquqshunoslikni rivojlantirish huquqshunos mutaxassislarni tayyorlash sifati va ularni o'qitish ishlarini yaxshilash zaruriyati bilan ham belgilanadi. Qiyosiy huquqshunoslik muammolarini ishlab chiqish xorijiy-huquqiy fanlarni o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi.</p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – “Qiyosiy huquqshunoslik” fanini o'qitishning asosiy maqsadi magistrantlarga fanlar, ularni o'rganish va o'qitish muammolari bo'yicha nazariy va amaliy, tajribaviy izlanishlarni rejalashtira olishni, maxsus adabiyot, meyoriy hujjatlarni o'rganib, xulosa va tahlil qila bilishni o'rgatishdan iborat.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- magistrantlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish;</li> <li>- ularda nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qila olish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;</li> <li>- “Qiyosiy huquqshunoslik” o'quv fanining o'quv - tarbiyaviy ahamiyati talabalarning umumiy huquqiy madaniyatini oshirish;</li> <li>- huquqiy madaniyat, yuridik tafakkurni shakllanish;</li> <li>- Qiyosiy huquqshunoslik nafaqat umumiy huquq nazariyasi masalalarini, balki huquqiy fan sohalarining ham muammolarini balki tarmoqlararo fan xarakterini kasb etishini tushuntirish;</li> </ul>			

- qiyosiy huquqshunoslik xalqaro aloqalarni rivojlantirishning muhim shakli sifatida ham namoyon bo'lishi;

- hozirgi davr huquqiy tizimlari rivojlanishidagi tendentsiyalar va yangi hodisalarni anglab yetish huquqiy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlarini aniqlash, yangi xorijiy huquqiy materiallarni o'zlashtirish zaruriyati bilan bog'liqligini;

- bo'lajak magistrlardagi – umumiy huquq nazariyasi va yuridik fanlar sohalarini to'ldirish va rivojlanishini, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishni va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning va amalga joriy etish qobiliyatini rivojlantirish;

- magistrantlarga axborot xurujlari, ma'naviy tahdidlar va ommaviy madaniyatning zararli oqibatlarini oldini olishda mutaxassislik fanlari yutuqlariga tayanish, ularning ilmiy-nazariy-metodologik uslublaridan foydalanish metodlari, usul va vositalarini o'rgatishdan iborat.

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu: Qiyosiy huquqshunoslik nazariyasi va tarixiga kirish**

Hozirgi zamon huquqiy tizimlari ilm va o'quv fani sifatida. Qiyosiy huquqshunoslik huquqiy bilimlarning alohida sohasi sifatida. Qiyosiy huquqshunoslik yuridik fanlar tizimida. Qiyosiy huquqshunoslikni boshqa yuridik fanlar bilan nisbati: huquqning umumiy nazariyasi va tarixi, huquq falsafasi va sotsiologiyasi, yuridik fan tarmoqlari, qiyosiy siyosatshunoslik. Qiyosiy huquqshunoslik va xorijiy huquqni o'rganish. Hozirgi davr huquqiy xaritasini o'rganish - hozirgi qiyosiy huquqshunoslikning asosiy vazifasi. Qiyosiy huquqshunoslik ilmiy fan va metod sifatida. Qiyosiy huquqshunoslik o'quv kursi sifatida. O'quv kursining predmeti, maqsad va vazifalari, tizimi. O'quv adabiyotlari. Yuristlarni tayyorlashda o'quv kursining ahamiyati.

#### **2-mavzu: Hozirgi zamon huquqiy tizimlari kursining metodologiyasi**

Qiyoslash tushunchasi va ahamiyati. Ijtimoiy-falsafiy va siyosiy-huquqiy tafakkur mutafakkirlari davlat-huquqiy hodisalarni o'rganishda qiyoslash va qiyosiy metoddan foydalanish to'g'risida. Qiyosiy metod ilmiy bilishning boshqa xususiy metodlari bilan birgalikda foydalaniladigan yuridik fanning xususiy metodlaridan biri sifatida. Yuridik fanning boshqa sohalarida qiyosiy metoddan foydalanish. Milliy huquqning muayyan ilmiy-amaliy huquqiy muammolarini yechishda qiyosiy metoddan foydalanish. Qiyosiy metod va federativ davlatlarning huquqiy tizimini o'rganish. Qiyosiy metod va xalqaro huquq. Huquqiy tizimlarning qiyosiy tadqiqoti turlari va asosiy yo'nalishlari. Diaxron va sinxron qiyoslash. Ichki va tashkilotlarni qiyoslash. Makroqiyoslash va mikroqiyoslash.

#### **3-mavzu: Qiyosiy huquqshunoslik tarixi**

Qiyosiy huquqshunoslikni paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari. XIX asr qiyosiy huquqshunosligining umumiy xarakteristikasi. Olmoniya qiyosiy huquqshunosligining tarixiy-falsafiy yo'nalishi. Qiyosiy

qonunchilikning Frantsuz maktabi. Rossiyada qiyosiy huquqshunoslikning rivojlanishi. Angliya va AQShda qiyosiy huquqshunoslik evolyusiyasining o'ziga xos tomonlari. XX asrning birinchi yarmida qiyosiy huquqshunoslik. Ikkinchi jahon urushidan keyin qiyosiy huquqshunoslikning rivojlanishi. Sovet qiyosiy huquqshunosligining rivojlanishi. Yuridik komparativistikasining hozirgi ahvoli. Chet el huquqshunos-olimlari tomonidan qiyosiy huquqshunoslik muammolarining ishlab chiqilishi. Qiyosiy huquqshunoslik va xalqaro ilmiy hamkorlik.

#### **4-mavzu: Qiyosiy huquqshunoslik funksiyalari**

Qiyosiy huquqshunoslikning nazariy bilish funktsiyasi. Qiyosiy huquqshunoslikning amaliy tajriba funktsiyasi. Huquqni unifikatsiya qilish va uyg'unlashtirish. Chet el huquqiy tajribasini o'rganish. Qiyosiy huquqshunoslikning o'quv-pedagogik ahamiyati. Qiyosiy huquqshunoslikning ta'lim funktsiyasi. Xalqlar o'rtasida iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishda qiyosiy huquqshunoslikning roli.

#### **5-mavzu: Jahonning huquqiy xaritasi. Hozirgi davrning asosiy tizimlarining klassifikatsiyasi**

Jaxon huquqiy xaritasi - kiyosiy huquqshunoslik o'rganadigan asosiy predmet. Hozirgi davr huquqiy tizimlarining klassifikatsiyasi va turkumlashtirish tushunchasi, huquqiy klassifikatsiya va turkumlashtirishning yuridik me'zoni. Qiyosiy huquqshunoslikda huquqiy tizimlar tushunchasi: "milliy huquqiy tizim" va "huquqiy tizimlar oilasi". Huquqiy tizimlar klassifikatsiyasi. Huquqiy oilalarning manbasi, tuzilmasi, asosiy tushunchalari va huquq institutlarini shakllantirish mv'zonlari. Hozirgi davr huquqiy tizimlarining asosiy oilalari. Huquqiy oilalar to'g'risida ta'limot.

#### **6-mavzu: Hozirgi davrning asosiy huquqiy tizimlari. Roman-olmon huquqiy oilasi. Skandinaviya mamlakatlarining huquqiy tizimlari**

Roman-olmon huquqiy oilasi paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy va madaniy shart-sharoitlari. Roman-olmon huquqiy tizimlarining tarqalish geografiyasi. Roman-olmon huquqiy oilasi huquqiy tizimlarining manbalar tizimi va tuzilmasi. Roman-olmon huquqiy oilasi mamlakatlari huquqiy tizimlaridagi umumiy uziga xosliklari. Frantsuz huquqi - frantsuz huquqiy guruhining modeli. GFR huquqi - Olmoniya huquqiy guruhining modeli.

Skandinaviya mamlakatlarining huquqiy tizimlarini mustaqil huquqiy oilaga ajratish asoslari. Skandinaviya mamlakatlarining huquqiy tizimlarini tarixiy rivojlanishi. Huquq manbalari tizimi. Skandinaviya mamlakatlari qonunchiligini unifikatsiya qilish va uyg'unlashtirish.

#### **7-mavzu: Lotin amerikasi mamlakatlarining huquqiy tizimlari**

Lotin Amerikasi mamlakatlari misolida huquq retseptsiyasining huquqiy tizimlar rivojlanishidagi roli. Roman-olmon modelining ustunligining tarixan shakllanishi. Lotin Amerikasi huquqiy tizimlarida huquq retseptsiyasi va modernizatsiyasining birligi. AQSh huquqi ta'sirining oshib borishi. Kontinental

va Anglosakson guruhi mamlakatlari huquqiy tizimlarining yaqinlashuvi tendentsiyasi.

### **8-mavzu: Sotsialistik huquq – alohida tarixiy tipdagi huquq**

Sotsialistik huquqning paydo bo'lishi va umumiy xarakteristikasi. Turli mamlakatlarda sotsialistik huquqiy tizimlarni shakllanishining o'ziga xosligi. Sotsialistik huquq manbalari va asosiy sohaları. Federativ va unitar davlatda sotsialistik huquq. Sotsialistik huquqiy tizimlar klassifikatsiyasi. Sovet huquqiy tizimi. Yevropa sotsialistik mamlakatlar huquqiy tizimlarining o'ziga xos tomonlari. Osiyo sotsialistik davlatlarining huquqiy tizimlarini o'ziga xos tomonlari. Kuba huquqiy tizimi. Sotsialistik huquqni rivojlanishining istiqbollari.

### **9-mavzu: Yaponiya huquqiy tizimi**

Yaponiya huquqi. Yaponiya yevropa kontinental huquqining retseptsiyasi. Yaponiyada an'anaviy axloq normalari va qabul qilingan g'arb huquqining o'zaro munosabatlari. Yaponiya huquqiy tizimiga amerika huquqi ta'sirining kuchayib borishi. Hozirgi davr Yaponiya huquqi.

### **10-mavzu: Angliya huquqiy tizimi. AQShning huquqiy tizimi. Britaniya hamdo'stligi mamlakatlarining huquqiy tizimlari**

Angliya umumiy huquqi va uning manbalari tizimini shakllanishining o'ziga xos tomonlari. Angliya umumiy huquqi tarqalishining geografiyasi. Anglo-Amerika mamlakatlari huquqiy oilasida huquq manbalari va tizimi. Huquqiy tizimda umumiy huquqning ahamiyati va o'rni. Sud pretsedenti. Qonunchilik va sud huquqiy ijodkorligining nisbati. Sud doktrinasi va huquq sohalari me'yorlari kontseptsiyasi. Asosiy huquqiy institutlar va huquq sohalarining o'ziga xosligi. Hozirgi angliya huquqining rivojlanishidagi acociy tendentsiyalar. Statut huquqi (qonunchilik) rolining o'sib borishi. Taqdim qilingan (delegirovan) qonunchilikning o'sishi. Huquq islohoti. Shotlandiyaning huquqiy tizimi.

AQSh huquqiy tizimining o'ziga xosligi. Federal huquq va shtatlar huquqi. AQSh umumiy huquqining o'ziga xosligi. Qonunchilikning kodifikatsiyalash va tizimlashtirish. Sud nazorati. Amerika huquqining manbalari. Amerika huquqining rivojlanishining hozirgi zamon tendentsiyalari.

Angliyaning umumiy huquqi - Britaniya Hamdo'stligi huquqiy tizimlarining tarixiy negizidir. Britaniya Hamdo'stligi milliy huquqiy tizimlarining klassifikatsiyasi. Pretsedent huquqi va Britaniya Hamdo'stligi mamlakatlarining umumiy huquqiy merosi. Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya huquqiy tizimlarining o'ziga xosligi. Angliya huquqi bilan mahalliy odat huquqining o'zaro nisbati. Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya huquqi manbalari.

### **11-mavzu. Diniy va an'anaviy oilalari. Musulmon huquqi. Hind huquqi.**

Musulmon huquqning tarixiy evolyutsiyasi. Musulmon huquqi manbalari. Doktrina musulmon huquqining asosiy manbasi sifatida. Musulmon huquqida Qur'on va Sunnaning roli. Musulmon huquqining asosiy mazhablari. Musulmon huquqining o'ziga xos asosiy institutlari va tarmoqlari. Davlat va diniy majburlovi. Musulmon huquqi va qonun. Xorijiy Sharq huquqiy tizimlarida

musulmon huquqi.

Hind huquqining diniy o'zaklari. Hind huquqining qo'llash doirasi va boshqa amaldagi huquq qismlari bilan o'zaro harakati. Angliya umumiy huquqining hind huquqiga ta'siri. Hind huquqining manbalari. Boshqaruv usulining alohidaliligi; davlat majburlovining roli. Hind huquqining harakat qilish mexanizmlari. Hindiston huquqiy tizimi.

### **12-mavzu: Uzoq sharq mamlakatlarining huquqiy tizimlari. Afrikaning huquqiy tizimi**

Uzoq Sharq huquqining umumiy xarakteristikasi. Qadimgi Xitoy huquqi-Uzoq Sharq huquqining asosidir. Konfutsiyaviy va legist huquq tushunchasi. Uzoq Sharq huquqi tushunchasining o'ziga xosligi. Xitoy huquqiy kontseptsiyasining Fap6 huquqiy kontseptsiyasidan farqi. Xitoyning sotsialistik huquqi.

Afrikaning huquqiy tizimi. Odat huquqining boshlanishi va tarqalish geografiyasi. Tropik Afrika, Okeaniya va boshqa mamlakatlar kabilalari huquqi. Afrikaning odat huquqi va hozirgi zamon qonunchiligi. Asosiy huquqiy oilalarning Afrika odat huquqiga ta'siri.

### **13-mavzu: Qiyosiy huquqshunoslik va aralash huquqiy tizimlar**

"Aralash" huquqiy tizimlar. Shotlandiya. Kvebek provintsiyasi, JAR huquqiy tizimlarida roman-olmon huquqiy oilasi va angliya umumiy huquqining elementlari aralashuvi va tarixiy o'zaro harakatining o'ziga xosligi. Isroilning huquqiy tizimi.

### **14-mavzu. Qiyosiy huquqshunoslik va xalqaro huquq. Yevropa huquqi.**

Milliy (ichki davlat) va xalqaro huquq munosabatlari. Asosiy nazariyalar. Xalqaro huquqning milliy huquqiy tizimlarga ta'siri. Xalqaro shartnomalar asosida milliy huquqiy tizimlarining yaqinlashuvi mexanizmi. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar. Inson huquqlari bo'yicha asosiy universal va mintaqaviy shartnomalar. Qiyosiy huquqshunoslik bilan xalqaro ommaviy huquqning o'zaro harakati. Qiyosiy huquqshunoslik va xalqaro xususiy huquq.

Yevropa huquqi tushunchasi. Yevropa huquqining vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari. Yevropa huquqining manbalari. Yevropa Ittifoqining asosiy hujjatlari. Masstrixt va Amsterdam shartnomalari. Yevropa Kengashi huquqi. Yevropa Kengashining asosiy hujjatlari. 1950 yildagi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish haqidagi Yevropa konventsiyasi. Yevropa huquqi makoni va qiyosiy huquqshunoslik. Yevropa huquqining rivojlanish istiqbollari.

### **15-mavzu: Qiyosiy huquqshunoslik va milliy huquqiy tizimlar. O'zbekistonning milliy huquqiy tizimi**

O'zbek huquqining tarixiy rivojlanishi. Huquqiy an'analarda plyuralizm. O'zbek huquqi evolyutsiyasining asosiy bosqichlari. Musulmon huquqi. O'zbek huquqini rivojlanishiga rus huquqining ta'siri. O'zbekistonning hozirgi zamon huquqi va roman-olmon huquqiy oilasi. Hozirgi zamon o'zbek huquqi manbalari. O'zbekiston Respublikasining 1992 yildagi Konstitutsiyasi va qonunchilikning

rivojlanishi.

### **III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar** **Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Qiyosiy huquqshunoslik nazariyasi va tarixiga kirish.
2. Hozirgi zamon huquqiy tizimlari kursining metodologiyasi.
3. Qiyosiy huquqshunoslik tarixi.
4. Qiyosiy huquqshunoslik funktsiyalari.
5. Jahonning huquqiy xaritasi. Hozirgi davrning asosiy tizimlarining klassifikatsiyasi.
6. Hozirgi davrning asosiy huquqiy tizimlari. Roman-olmon huquqiy oilasi. Skandinaviya mamlakatlarining huquqiy tizimlari.
7. Lotin amerikasi mamlakatlarining huquqiy tizimlari.
8. Sotsialistik huquq – alohida tarixiy tipdagi huquq.
9. Yaponiya huquqiy tizimi.
10. Angliya huquqiy tizimi. AQShning huquqiy tizimi. Britaniya hamdo'stligi mamlakatlarining huquqiy tizimlari.
11. Diniy va an'anaviy oilalari. Musulmon huquqi. Hind huquqi.
12. Uzoq sharq mamlakatlarining huquqiy tizimlari. Afrikaning huquqiy tizimi.
13. Qiyosiy huquqshunoslik va aralash huquqiy tizimlar.
14. Qiyosiy huquqshunoslik va xalqaro huquq. Yevropa huquqi.
15. Qiyosiy huquqshunoslik va milliy huquqiy tizimlar. O'zbekistonning milliy huquqiy tizimi.

#### **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarining jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

#### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Milliy huquqning muayyan ilmiy-amaliy huquqiy muammolarini yechishda qiyosiy metoddan foydalanish.
2. Qiyosiy metod ilmiy bilishning boshqa xususiy metodlari bilan birgalikda foydalaniladigan yuridik fanning xususiy metodlaridan biri sifatida.
3. Qiyosiy huquqshunoslikni paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari.
4. XIX asr qiyosiy huquqshunosligining umumiy xarakteristikasi.
5. Qiyosiy metod va federativ davlatlarning huquqiy tizimini o'rganish.
6. XX asrning birinchi yarmida qiyosiy huquqshunoslik.
7. Ikkinchi jahon urushidan keyin qiyosiy huquqshunoslikning rivojlanishi.



8. Qiyosiy huquqshunoslik va xalqaro ilmiy hamkorlik.
9. Xalqlar o'rtasida iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishda qiyosiy huquqshunoslikning roli.
10. Sovet qiyosiy huquqshunosligining rivojlanishi.
11. Yuridik komparativistikasining hozirgi ahvoli.
12. Chet el huquqshunos-olimlari tomonidan qiyosiy huquqshunoslik muammolarining ishlab chiqilishi.
13. Qiyosiy huquqshunoslikning o'quv-pedagogik ahamiyati. Qiyosiy huquqshunoslikning ta'lim funktsiyasi.
14. Huquqiy oilalar to'g'risida ta'limot.
15. Skandinaviya mamlakatlari qonunchiligini unifikatsiya qilish va uyg'unlashtirish.
16. Lotin Amerikasi mamlakatlari misolida huquq retseptsiyasining huquqiy tizimlar rivojlanishidagi roli.
17. AQSh huquqiy tizimining o'ziga xosligi.
18. Roman-olmon huquqiy oilasi paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy va madaniy shart-sharoitlari.
19. Kontinental va Anglosakson guruhi mamlakatlari huquqiy tizimlarining yaqinlashuvi tendentsiyasi.
20. Skandinaviya mamlakatlarining huquqiy tizimlarini tarixiy rivojlanishi.
21. Yaponiya huquqiy tizimi
22. Anglo-Amerika mamlakatlari huquqiy oilasida huquq manbalari va tizimi.
23. Lotin Amerikasi huquqiy tizimlarida huquq retseptsiyasi va modernizatsiyasining birligi.
24. Hozirgi angliya huquqining rivojlanishidagi asosiy tendentsiyalar.
25. Statut huquqi (qonunchilik) rolining o'sib borishi.
26. Yangi O'zbekistonda huquq islohoti.
27. Angliya umumiy huquqi va uning manbalari tizimini shakllanishining o'ziga xos tomonlari.
28. Angliya umumiy huquqi tarqalishining geografiyasi.
29. Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya huquqiy tizimlarining o'ziga xosligi.
30. Huquqiy tizimda umumiy huquqning ahamiyati va o'rni.
31. Asosiy huquqiy institutlar va huquq sohalarining o'ziga xosligi.
32. Britaniya Hamdo'stligi milliy huquqiy tizimlarining klassifikatsiyasi.
33. Musulmon huquqning tarixiy evolyutsiyasi va musulmon huquqi manbalari.
34. Hind huquqining diniy o'zakkari. Hind huquqining qo'llash doirasi va boshqa amaldagi huquq qismlari bilan o'zaro harakati.
35. Konfutsiyaviy va legist huquq tushunchasi.
36. Amerika huquqining rivojlanishining hozirgi zamon tendentsiyalari.
37. Angliyaning umumiy huquqi - Britaniya Hamdo'stligi huquqiy tizimlarining tarixiy negizidir.
38. Uzoq Sharq huquqining umumiy xarakteristikasi. Qadimgi Xitoy huquqi-Uzoq Sharq huquqining asosidir.
39. Xitoyning sotsialistik huquqi.
40. Angliya huquqi bilan mahalliy odat huquqining o'zaro nisbati.

	<p>41. O'zbekistonning hozirgi zamon huquqi va roman-olmon huquqiy oilasi.  42. Musulmon huquqining o'ziga xos asosiy institutlari va tarmoqlari.  43. Xorijiy Sharq huquqiy tizimlarida musulmon huquqi.  44. Qiyosiy huquqshunoslik va aralash huquqiy tizimlar  45. Angliya umumiy huquqining hind huquqiga ta'siri.  46. Hindiston huquqiy tizimi.  47. Xalqaro huquqning milliy huquqiy tizimlarga ta'siri.  48. Musulmon huquqi.  49. Uzoq Sharq huquqi tushunchasining o'ziga xosligi.  50. Xitoy huquqiy kontseptsiyasining Fap6 huquqiy kontseptsiyasidan farqi.  51. Musulmon huquqi.  52. Afrikaning huquqiy tizimi. Odat huquqining boshlanishi va tarqalish geografiyasi.  53. Qiyosiy huquqshunoslik va xalqaro xususiy huquq.  54. Milliy (ichki davlat) va xalqaro huquq munosabatlari.  55. Yevropa huquqiy makoni va qiyosiy huquqshunoslik.  56. Xalqaro shartnomalar asosida milliy huquqiy tizimlarining yaqinlashuvi mexanizmi.  57. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar.  58. Inson huquqlari bo'yicha asosiy universal va mintaqaviy shartnomalar.  59. O'zbek huquqini rivojlanishiga rus huquqining ta'siri.  60. Qiyosiy huquqshunoslik va milliy huquqiy tizimlar.</p>
3.	<p style="text-align: center;"><b>IV. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b>  <b>Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qiyosiy huquqshunoslik fanlarini o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish, talabalarning diqqatini jalb qilish va mashg'ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllari (ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, o'quv amaliyoti, Qiyosiy huquqshunoslik fanlarini o'qitishning multimedia va interfaol ta'lim texnologiyalari to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i></li> <li>• mutaxassislik fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash, mutaxassislik fanlarining o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llash, mutaxassislik fanlarini o'qitishda mashg'ulotlarning rejasini tuzish va ma'ruza matnini tayyorlash; ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish, yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish, auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish, o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalarni qo'llash kabi <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i></li> <li>• mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining vazifalari, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari, mutaxassislik fanlari ta'lim mazmunini tanlash mezonlari, mutaxassislik fanlarini o'qitish metod va</li> </ul>

	vositalarining ilmiy asoslari, mutaxassislik fanlarini o'qitishning axborot texnologiyalari, mutaxassislik fanlarini o'qitishning tashkiliy shakllari, mutaxassislik fanlarini o'qitish texnologiyalarining pedagogik asoslari, mutaxassislik fanlaridan o'quv amaliyotini tashkil etish, o'quv-ishlab chiqarish ishlarini meyorlashtirish va tashkil etish, mutaxassislik fan o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).</b>
4.	<p style="text-align: center;"><b>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va hiyoa qilish uchun loyihalar</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Axmedshayeva M.A. Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2011. – 236 bet.</li> <li>2. Axmedshayeva M.A. Davlat va huquq rivojining hozirgi zamon tendentsiyalari. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2016. –260 bet.</li> <li>3. Javliyev N.B. Hozirgi zamon huquqni tushunish muammolari. – T.: TDYuU, 2008. -115 b.</li> <li>4. Saidov A.X. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari. (Qiyosiy huquqshunoslik). Darslik. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2004.</li> <li>5. Saidov A.X. Sravnitel'noye pravovedeniye: Uchebnik/ otv. red. V.A.Tumanov. 2000.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.</li> <li>7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018</li> <li>8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2021. – 464 b.</li> <li>9. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 400 b.</li> <li>10. Mirziyoyev Sh.M. 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son</li> <li>9. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston»,</li> </ol>

2023.

10. Ansel M. Novaya sotsial'naya zashita (Gumanisticheskoye dvizheniye v ugolovnoy politike). – Moskva: 1993.
12. Berman G. Zapadnaya traditsiya prava: epoxa formirovaniya. — Moskva: 1994.
13. Bogdanovskaya I.Yu. Zakon v angliyskom prave. – Moskva: 1987.
14. Bogdanovskaya I.Yu. Pretsedentnoye pravo. – Moskva: 1993.
15. Vishnevskiy A.A. Kanonicheskoye pravo v zapadnoy Yevrope. – Moskva: 1994.
16. Vvedeniye v shvedskoye pravo. – Moskva: 1986.
17. David R. Osnovnyye pravovyye sistemy sovremennosti: Per.S fr. V.A.Tumanova. – Moskva: 1-e izd. 1967; 2-e izd. 1988; 3-e izd. 1996.
18. Denisov V.N. Sistemy prava razvivayushixsya stran. – Kiyev, 1978.
19. Inako S. Sovremennoye pravo Yaponii. – Moskva: 1981.
20. Krashennikov N.A. Indusskoye pravo: istoriya i sovremennost'. M., 1982.
21. Mazolin V.P. Lichnost', pravo i ekonomika sovremennoy Indii. – Moskva: 1979.
22. Marchenko M.N. Sravnitel'noye pravovedeniye. – Moskva: 2001.
23. Marchenko M.N. Pravovaya sistema sovremennogo mira. – Moskva: 2002.
24. Musul'manskoye pravo. – Moskva: 1984.
25. Ocherki sravnitel'nogo prava. Pod red. V.A.Tumanova. – Moskva: 1981.
26. Reshetnikov F.M. Pravovyye sistemy stran mira. – Moskva: 1993.
27. Problemy sravnitel'nogo pravovedeniya. – Moskva: 1978.
28. Problemy sravnitel'nogo pravovedeniya – Moskva: 1981.
29. Saidov A.X. Vvedeniye v sravnitel'noye pravovedeniye. – Moskva: 1988.
30. Saidov A.X. Vvedeniye v osnovnyye pravovyye sistemy sovremennosti. — Tashkent, 1988.
31. Saidov A.X. Sravnitel'noye pravovedeniye i yuridicheskaya geografiya mira. – Moskva: 1993.
32. Saidov A.X. Sravnitel'noye pravovedeniye. Uchebnoye posobiye. – Tashkent, 1999.
33. Snijaynen L.R. Musul'manskoye pravo. Voprosy teorii i praktiki. – Moskva: 1986.
34. Supatayev M.A. Pravo v stranax Vostochnoy Afriki. – Moskva: 1984.
35. Supatayev M.A. Pravo v sovremennoy Afrike. – Moskva: 1989.
36. Sinyukov V.N. Rossiyskaya pravovaya sistema. – Saratov, 1994.
37. Sovremennoye pravo KNR. – Moskva: 1998.
38. Sravnitel'noye konstitutsionnoye pravo. – Moskva: 1996.
39. Sudebnyye sistemy zapadnykh gosudarstv. – Moskva: 1991.
40. Tille A.A. Sotsialisticheskoye sravnitel'noye pravovedeniye. – Moskva: 1975.
41. Tille A.A., Shvekov G.V. Sravnitel'nyy metod v yuridicheskix distsiplinax. 2-e izd. – Moskva: 1978.
42. Tixomirov K.A. Kurs sravnitel'nogo pravovedeniya. – Moskva: 1996.
43. Toporin B.N. Yevropeyskoye pravo. – Moskva: 1998.
44. Chirkin V.E. Osnovy sravnitel'nogo gosudarstvovedeniya. – Moskva: 1997.